



JALOLIDDIN RUMIY IJODINING O'ZBEK SHE'RIYATIGA TA'SIRI

Xamdamova Maxsuma Bahodirjon qizi

Farg'onan tumani, 5-maktab ona tili va adabiyot o'qituvchisi

ORCID ID 0000-0002-1849-9554

maxsumaxamdamova@gmail.com

+998330941218

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jaloliddin Rumiy hikmatlarining o'zbek she'riyatiga ta'siri masalasi yoritilgan. Erkin Vohidov, Jamol Kamol, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Azim Suyun, Jamol Kamol, Amir Po'lkan, Ikrom Otamurod va boshqa ijodkorlarning adabiy merosiga Jaloliddin Rumiy g'oyalarining ta'siri o'rGANildi.

Abstract: This article examines the influence of Rumi's wisdom on Uzbek poetry. The influence of Rumi's ideas on the literary heritage of Erkin Vohidov, Jamol Kamol, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Azim Suyun, Jamol Kamol, Amir Polkan, Ikrom Atamurod and other creators was studied.

Аннотация: В статье рассматривается влияние мудрости Джалауддина Руми на узбекскую поэзию. Изучено влияние идей Джалауддина Руми на литературное наследие Эркина Вохидова, Джамола Камола, Эркина Вохидова, Абдуллы Орипова, Азима Суюна, Джамола Камола, Амира Полканы, Икрома Атамурова и других творцов.

Kalit so'zlar: Jaloliddin Rumiy, hikmatlar, do'stlik, dunyo, "Ichindagi ichindadir"

Keywords: Jalaluddin Rumi, wisdom, friendship, world, "What is within is within you"

Ключевые слова: Джалауддин Руми, мудрость, дружба, мир, «То, что внутри, то внутри тебя»



KIRISH. Inson yaralgandan buyon, uning ma'naviyati, axloqi, tarbiya masalasi har bir davr uchun dolzarb bo'lib kelmoqda. Fikrni she'riy yoki nasriy hikmat shaklida ifodalash orqali kitobxonni haq va haqiqat sirlaridan, dunyo va tirikchilik mohiyatidan ogoh qilish Sharq mumtoz adabiyotida asosiy o'rinn tutadi. Sharq va G'arbning mushtarak dahosiga aylangan Jaloliddin Rumi va uning "Masnaviyi ma'naviy" nodir asari hikmatnavislikning eng yetuk dahosi bo'lganini yaqqol belgilab beradi. Uning hikmatlarining o'zbek tarjimonlari tomonidan takror-takror to'plab tarjima qilganligi ham Rumi dahosining xalqimiz ma'naviy olamiga naqadar yaqinligidan dalolat beradi. Ayniqsa, XXI kompyuter texnologiyalari asrida yashar ekanmiz, yosh avlodning axloqi va tarbiyasi avvalgi vaqtlardan ko'ra murakkabroqdir. Albatta, bunday jarayonda bizga didaktik ruhda yozilgan asarlar katta yordam beradi. Vatanimiz istiqlolga erishganidan so'ng, ajdodlarimiz merosini davr talablaridan kelib chiqqan holda qayta, haqqoniy baholash jarayoni boshlandi. Shuning uchun ham birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov mamlakatimizning rivojlanish strategiyasidagi "Ikkinchi ustuvor yo'nalish-jamiyat ma'naviyatini yanada yuksaltirishdan iborat"¹, - ekanligini belgilab bergen edi. Mumtoz allomalarimizning asarlari, ta'limoti va uning hozirgi zamon shoirlari talqinidagi o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish adabiyotshunoslar oldida turgan katta vazifadir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA Jaloliddin Rumi yaxlitimizning buyuk shoiri, aziz allomasi hisoblanadi. Adabiyot ixlosmandlari uning asarlarini Xo'ja Ahmad Yassaviy, Mavlono Lutfiy, Mavlono Ato, Mavlono Xorazmiy, Shayx Sa'diy, Hofiz Sherazi, Alisher Navoiy, Boborahim Mashrab asarlari qatorida sevib o'rganishadi.

Jaloliddin Rumiyning g'oyalari o'zbek adabiyotiga, xususan, nasrga va u bilan bir qatorda she'riyatga ta'sir ko'rsatgan. Jumladan, Erkin Vohidov, Abdulla

¹ Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'llimiz bilan quramiz. -T. : O'zbekiston, 1999. - B 381 49



Oripov , Azim Suyun, Jamol Kamol, Amir Po'lkan, Ikrom Otamurod va boshqa ijodkorlar asarlarida bu ta'sir ko'zga tashlanadi. Quyida shoir Erkin Vohidov she'riyatining Jaloliddin Rumi g'oyalari aks etgan ayrim o'rirlarni tahlil qilib ko'ramiz. Shoirning "Garchi shuncha mag'rur tursa ham" deb boshlanuvchi she'ri har bir insonda mujassam etmog'i kerak bo'lgan kamtarlik tuyg'usini ifodalab bergen . Jaloliddin Rumiyning ham aksariyat hikmatlari kamtarlik, oddiylik, siniqlik haqida, jumladan hikmatlaridan birida "Oddiy fikrla, oddiy qabul qil va oddiy yasha! Chunki haqiqat ham juda oddiydir²",- deydi.

NATIJALAR. Jaloliddin Rumiyning ko'plab hikmatlarini mutolaa qilar ekanmiz , unda insoniyatni saodatga , komillikka, yaxshilikka boshlovchi pand-nasihatlarni ko'ramiz. "Do'stlik nishonasi balolardan, ofatlardan, mashaqqatlardan xursand bo'lish emasmi? Do'st oltin kabidir, balo esa olovga o'xshaydi. Asl oltin olov ichida sof holga keladi³" ,-deydi Jaloliddin Rumi. Bu yerda Jaloliddin Rumiyl asl do'stlik tushunchasini oltinga qiyoslamoqda va asl oltinning olov ichida sof holga kelishini, do'stlik ham mashaqqat va turli qiyinchiliklardan keyin shakllanishini ta'riflamoqda. Erkin Vohidov ijodiga nazar tashlar ekanmiz, uning yuqoridagi do'stlik tushunchasiga hamohang tarzda ijod namunasini yaratganiga guvohi bo'lamiz.

Do'st bilan obod uying, gar bo'lsa vayrona ham,

Do'st qadam qo'ymas esa , vayronadur koshona ham⁴.

Ushbu g'azalda Erkin Vohidov do'stlik tushunchasining naqadar ulug'ligi, qadrli, kerakliligini ta'riflab, dostsiz uy qanchalik koshona bo'lmasin, baribir, vayronaga o'xshashini ta'kidlaydi. "Do'st deb achchiq gapirganga emas, achchiqni shirin gapirganga aytildi", -hikmati ham yuqoridagi fikrimiz dalilidir.

² <https://hikmatlar.uz>

³ <https://hikmatlar.uz>

⁴ Vohidov.E.Toshkent.: O'zbekiston nashriyoti,2022.25-bet



Jaloliddin Rumi : “Ishq azobini tortmagan yurak yo telbaning, yo murdaning yuragidir⁵”, -deydi, sababi xalq maqollarida ham ish haqida “Ishqsiz eshak, dardsiz kesak⁶”, deyiladi. Mavlononing ushbu hikmatini turlicha talqin qilishimiz mumkin. Menimcha, ishq bu yerda yaratganga bo‘lgan muhabbat tushunilmoqda, muhabbatsiz yurakning telba yoki murdaning yuragiga qiyoslanmoqda. Erkin Vohidovning quyidagi g‘azalida esa, bevosita Jaloliddin Rumi hikmatlari g‘oyasidan foydalaniib, ishq mavzusini olib chiqqan:

Dunyo ekan ishq degan savdo bormi faqat mening boshimda?!

Kimni etmas bu ko‘ngil shaydo , kim she’r yozmas mening yoshimda⁷??!

Lirik qahramonning boshiqa ishq ofati yog‘ilganligini, sevgi degan bir ne’mat har insonga berilishi, unga oshiq bo‘lgan shaydo ko‘ngil esa sevgini madh etishi haqida yozgan. Mavlono dunyo haqida ham bir necha asarlarida , xususan “Ichindagi ichindadir”, “Yetti majlis”, “Nay nolasi” kabi bir necha asarlarida uning o‘tkinchiligi , dunyoga xirs qo‘ymaslik haqida bir necha misollar keltirgan , “Dunyo olimning qiymatsiz o‘yinchog‘i, axmoqning esa qiymatli arg‘umchog‘i⁸”, -deya Erkin Vohidov o‘zining “Inson” qasidasi ham Jaloliddin Rumi g‘oyalari bilan sug‘orilgan bo‘lib, falsafiy ruhda yozilgan, insonni o‘ylantiradigan mushohadaga chorlaydigan mavzularni aks etgan. Yuqoridagi hikmatli so‘z g‘oyasiga mos yozilgan baytini ko‘rib chiqamiz:

Bu yorug‘ dunyo nadur? Koshonadur, vayronadur?

Senga mehmonxonadur, mehmon o‘zing , mezbon o‘zing⁹.

⁵ <https://hikmatlar.uz>

⁶ Adabiyot.8-sinf.1-qism(2014,S.Olim, S.Ahmedov)112-bet

⁷ Vohidov.E.Toshkent.: O’zbekiston nashriyoti,2022.12-bet

⁸ <https://hikmatlar.uz>

⁹ Vohidov.E.Toshkent.: O’zbekiston nashriyoti,2022.12-bet



Ushbu baytda ham Erkin Vohidov Jaloliddin Rumiyning bu o'tkinchi dunyoga muhabbat qo'ymaslik g'oyasidan foydalanib, dunyoning kimga koshona-yu, kimga vayrona ekanligi , nima bo'lganda ham bu dunyoga mehmon ham, mezbon ham inson ekanligi ta'kidlangan. J.Rumiyning "Aql va qalbsiz inson tuyg'ularining hech biri harakatga kelmasdi", va "Tilingdan oldin qalbingni tarbiya qil , chunki so'z qalbdan kelib tildan chiqadi", nomli hikmatlaridan ta'sirlanib, shoir Erkin Vohidov

Qalb shunday ummonki, uning bag'rida

Dahshatli dolg'alar silsilasi bor¹⁰...

Ushbu she'rida qalbning shunday buyuk ummon ekanligini, uning mehvaridan chiqarmoq uchun atom janggi emas bir so'z kifoya qilishini ta'riflaydi. J.Rumiyning ko'plab hikmatlari falsafiy – diniy mavzuda bo'lib , insonni sergaklikka umrni behuda o'tkazmaslikqa qaratilgandir. Xususan "Hayot uyqudir, o'lim-la uyg'onur inson¹¹" nomli hikmatli so'zi ham fikrimiz dalilidir. Ushbu hikmatdan ta'sirlanib, E.Vohidov "Hayot yo'li" nomli she'rida shunday yozadi:

Hayot yo'li nadir ? Qabr toshida

Ikki sana aro qisqa chiziqdir¹².

Erkin Vohidovning "Go'zallik" she'rida ham J.Rumiyning quyidagi hikmatidan foydalangan : "O'ylaring so'zlaringga so'zlaring fe'lingga fe'ling taqdiringga nuqs etadi. Go'zal o'yla, go'zal yasha¹³". Albatta , inson bu hayotda yashar ekan doimo go'zal o'ylashi, go'zal ishlar qilib o'zidan yaxshi nom qoldirmog'i kerak. Bundan tashqari Erkin Vohidov she'riyatida foniylik va boqiylilik, tun va tong, go'zallik va xunuklik, vaqt qadri kabi mavzular uchraydi.

¹⁰ Vohidov.E.Toshkent.: O'zbekiston nashriyoti,2022.81-bet

¹¹ <https://hikmatlar.uz>

¹² Vohidov.E.Toshkent.: O'zbekiston nashriyoti,2022.120-bet

¹³ <https://hikmatlar.uz>



Har narsaning bo‘lar oxiri

Bosh tebratib qolma, so‘ng inson¹⁴!

Ushbu misra Jaloliddin Rumiyning yuqoridagi hikmatidan ta’sirlanib yozilgan bo‘lib, dunyoning o‘tkinchi ekanligi, olamdan o‘tayotgan paytingda afsus-nadomat chekmaslik haqidagi hikmatiga taqqoslab yozilgan. Sababi, faqat insonlarga yaxshilik qilish, ezgu amallar bajargan insonning nomi boqiyidir.

MUHOKAMA Atoqli tarjimon Jamol Kamol haqida Xurshid Davron shunday deydi: “Jamol Kamol bizni Mashriqu Mag‘ribning ikki yuksak ustuni: Mavlono Jaloliddin Rumiy va Vilyam Shekspir dunyosi bilan tanishtirdi. Ustozning boshqa tarjimalarini sanab o‘tirmayman. Ammo, ishonchim komilki, birgina Mavlono va Shekspir asarlarining tarjimasiga singgan benazir mehnatining o‘zi Jamol Kamol tarjima maktabi haqida so‘z yuritishga asos bo‘ladi.

Jamol akaning so‘nggi yillardagi jamiyatimizda kechgan va kechayotgan jarayonlarga bag‘ishlangan publitsistikasi haqida gapirmaslikning iloji yo‘q. Hushyor kuzatuv, teran tahlil, mamlakat hayotiga faol doxillik bor bu asarlarda. Yana eng muhimi, bu asarlarda adabiyotning jamiyat va inson hayotidagi o‘rni haqida aytilgan rost va achchiq hikmat bor: “Dunyodagi barcha fanlar bir taraf, adabiyot bir taraf. Barcha fanlar tanningga xizmat qiladi, adabiyot joningga, ruhingga. Xo‘s, ruh nima? Ruh – sening insonliging...¹⁵”

Mavlono Rumiy ijodini tadqiq qilgan vaqtida, uning she’rlaridan ta’sirlanib ushbu baytlarni keltiradi.

Mavlono Rumiyning dil so‘zlaridan

Ajib sarxush bo‘lib kechdi kunlar.

“Masnaviy”ning hikmat yulduzlaridan

Yorishdi, charog‘on bo‘ldi tunlarim.

¹⁴ Vohidov.E.Toshkent.: O’zbekiston nashriyoti,2022.81-bet

¹⁵ www.kh-davron.uz



Ajab dengiz ko‘rdim, gavharlari mo‘l,
Lekin tub-tubida olmos tushuncha:
Har qancha bor esang, shuncha monand bo‘l,
Qancha monand esang, bor bo‘l o‘shancha¹⁶...
Darhaqiqat, Jamol Kamol juda ko‘p davralarda Jaloliddin Rumiy haqida gap ketganda, u zotning turli davlatlar bizniki deyishini ta’kidlab, ha, Jaloliddin Rumiy butun bashariyat shoiridir deydi.

XULOSA Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Jaloliddin Rumiy hikmatlariga Erkin Vohidov she’rlarida mazmunan hamohanglik kuzatiladi. Erkin Vohidov falsafasi, nafaqat Jaloliddin Rumiy g‘oyalardan, hikmatlaridan balki xalqimiz falsafasidan nafas oladi.

Rumiy ta’limoti jahon bo‘ylab tarqalib bormoqda. Rumiy ijodi o‘lmasdir, chunki ul zotning g‘oyalari, tushunchalari ma’naviyat osmonini yoritadigan mangu porloq mash’aladir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- ¹ Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. -T. : O‘zbekiston, 1999. - B 381 49
2. Vohidov.E.Toshkent.: O‘zbekiston nashriyoti,2022.25-bet
3. Adabiyot.8-sinf.1-qism(2014,S.Olim, S.Ahmedov)112-bet
4. www.kh-davron.uz
5. <https://hikmatlar.uz>

¹⁶ www.kh-davron.uz